

JAHON ADABIYOTIDA SONET JANRI TADRIJI

**Qurbonova Nodira Roziqovna,**

Buxoro davlat universiteti,

f.f.f.d (PhD)

[n.r.qurbonova@buxdu.uz](mailto:n.r.qurbonova@buxdu.uz)

**Mustafojeva Mahfuza Anvarovna,**

2-kurs magistratura talabasi

Buxoro davlat universiteti

[m.a.mustafojeva@buxdu.uz](mailto:m.a.mustafojeva@buxdu.uz)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sonet janrining yaratilishi tarixi va uning jahon she'riyatidagi o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan. Sonetning shakllanishi, uning mavzularidagi o'zgarishlar va bu janrni mukammallashtirishga qo'l urgan ijodkorlar haqida so'z boradi. Sonet evolutsiyasi, uning shakllanishi va rivojlanishi bevosita jahon tarixi va umuman olganda insoniyat tarixi bilan bog'liq.

Sonet qadimiy janr bo'lib, hozirgi zamonaviy adabiyotda ham o'z o'rniga ega. Dastlab Italiyada paydo bo'lib keyinchalik butun Yevropada tarqalgan bu shakl, o'zining qat'iy qonun-qoidalari va mukammal sayqallangan shakli bilan alohida ajralib turadi. Har bir mamlakatda o'zining milliy sonet shakllari mavjud; italyan, fransuz va ingliz sonetlari kabi. Har bir mamlakatdagi shoir, sonetning qoidalari rioya qilgan holda uni o'z tillariga moslashtirib, qofiyalanish usullari va ohangiga o'zgartirishlar kiritgan. Shu tariqa sonet o'ziga yarasha mutatsiyaga uchragan va bizgacha sayqallangan shaklda yetib kelgan.

**Kalit so'zlar:** strambotto, terset, oktava, volta, Jakomo de Lentini, lyutna, kantson, Gvitton d'Arezzo, Gvido Gviniselli, gendekasillabik, klinggedicht.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация об истории создания жанра сонета и его месте в мировой поэзии. Обсуждается формирование сонета, изменения его тематики и поэтах, пытавшихся усовершенствовать этот жанр. Эволюция сонета, его становление и развитие напрямую связаны с мировой историей и историей человечества в целом.

Sonet — древний жанр, и он занимает своё место в современной литературе. Эта форма, впервые появившаяся в Италии, а затем распространившаяся по всей Европе, отличается строгими правилами и идеально отшлифованной формой. В каждой стране есть свои национальные формы сонетов, такие как итальянские, французские и английские сонеты. Поэты каждой страны следовали правилам сонета, адаптировали его к своему языку и вносили изменения в методы рифмования и тон. Таким образом, сонет «мутировал» и дошёл до нас в совершенной форме.

**Ключевые слова:** страмботто, терцета, октава, вольта, Джакомо да Лентини, лютна, канцон, Гвидо д'Арецо, Гвидо Гвиницелли, гендекассилаб, клингедихт.

**Abstract.** This article provides information about sonnet's history, its formation and its place in the world poetry. Furthermore the poets who tried to improve this genre, alterations in the themes and establishment of the sonnet is discussed. The evolution of the sonnet, its founding and development are directly related to the world history and the history of mankind as a whole.

The sonnet is an ancient genre and is a feature of modern literature. This shape which firstly introduced in Italy and then spread across Europe, is characterized by strict rules and a perfectly polished shape. Each country has its own national sonnets, including Italian, French and English sonnets. The poets of each country followed the rules of the sonnet by adapting it to their language and modified the rhyming methods and rhythm. Thus, the «mutated» sonnet came into perfect shape.

**Key words:** strambotto, terceta, octave, volta, Giacomo da Lentini, lute, canzone, Guido d'Arezzo, Guido Guinicelli, gendecassilab, klinggedicht

**Kirish.** Sonet XIII asrda Italiyada *dolce stil nuovo* (shirin yangi hayot) ruhiyati mamlakatda avj olgan paytda paydo bo'lib rivojlandi. *Dolce stil nuovo* bu adabiy oqim bo'lib, o'rta asr oxirlarida Uyg'onish davrining boshlarida paydo bo'lgan. O'sha davrda Italiyaning katta shaharlari Toskaniya va Florensiyada savdo sotliq ham rivojlana boshlagan. Albatta, savdo-sotliqning rivojlanishi, davrlarlararo nafaqat savdo, balki adabiyotda ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Savdogarlar bilan birga ijod ahli ham boshqa mamlakatlarga sayohat qilib, qo'shni mamlakatlar adabiyotidan yangiliklar o'rganib o'zlarining ijodlarida tatbiq qila boshladilar.

*Dolce stil nuovo* oqimi namoyondalari, XIII-XIV asrlarda ijod etgan shoirlar Gvido Gviniselli, Grido Kavalkanti, Lapo Gani, Dante Aligyeri va boshqalar. Bu davr o'рта asr lirikasining asosiy muammosi – “yerdagi” va “ilohiy sevgi” o'rtasidagi munosabatlarning mutlaqo o'ziga xos yechimi bilan tavsiflanadi. Bu davrda diniy lirika ya'ni Isoning onasi Maryamni (Madonna) ulug'lab, jismoniy gunohdan voz kechishga chaqirgan bo'lsa, saroy she'riyati xonimga ritsarlik muhabbatni ulug'laydi. *Dolce stil nuovo* obrazlarining murakkab ramziyligida har ikkala dunyoqarashning to'qnashuvi o'z yechimini topadi. Yer yuzidagi go'zalning qiyofasi yo'q qilinmaydi, balki timsolga aylantiriladi. Ya'ni u o'zida xudoni mujassamlashtiradi va vahiyga aylanadi. Yerdagi ilohiy mohiyatga sig'inib, oshiq shoir xudoning o'ziga sig'inadi. Ayolga bo'lgan muhabbat shunday muqaddaslanadi. “Insoniy sevgi” “ilohiy sevgi” bilan birlashadi. Ushbu o'ziga xos “sevgi falsafasi” *dolce stil nuovo* syujet va shaklining barcha xususiyatlarini belgilaydi.

XIII asrda yashab ijod etgan Jakomo de Lentini sonet janriga asos solgan deb taxmin qilinadi. U Fridrix II saroyida notarius va shoir bo'lgan. U 14 misrali *ab ab ab ab cd ec de*, qofiyali she'rlar yozgan. She'rlarning asosiy mavzusi shundaki, u yorining vassali va unga sadoqatini kuylaydi, ammo xonimni uni faqat masxara qiladi va kamsitadi. Shoir ritsarlar sevgisini kuylaydi va uning zukkoligi muhabbatning teranligidan guvohlik beradi. Lentinining aksariyat she'rlari unutilgan, ammo u ko'plab zamondosh shoirlarini ilhomlantirib kelgan. Hatto Dante o'zining “Ilohiy Komediya”sida Lentinini tilga olgani buning yaqqol misoli bo'la oladi. Biroq Lentini hozirda asosan sonet janrini kashf etganligi sababli esga olinadi. Lentini o'z sonetlarida “qo'pol o'yilgan” shakllar yaratganmi yoki o'z soneti uchun boshqa manbalardan ko'chirmalar chizganmi yoki chizmaganligini biz aniq bilmaymiz. Ammo olimlar odatda Sitsiliya strambottosi Lentini sonetining manbasi bo'lishi mumkin degan fikrni ilgari suradilar. Strambotto sakkiz misra va bir baytdan iborat she'r bo'lib, turli xil qofiyalanadi. Rim oktavasi yoki oddiy oktavadagi *ab ab ab cc* qofiya Sitsiliya oktavasida esa *ab ab ab ab* qofiyada keladi. Eng mashhur qofiya bu Sitsiliya qofiya shakli hisoblanadi. Bu shakl xalq she'riyatining taqlidlarini ifodalovchi she'rlarda qo'llanilgan. Strambotto boshidanoq musiqa bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Shoirlar uni tayyorgarliksiz improvizatsiya tarzida, lyutnya<sup>9</sup> ohangi ostida kuylab yaratishgan. Sitsiyaliklar, tuskanaliklar va fransuzlar strambottodan satirik maqsadda foydalanishgan, ammo italiyaliklar uni ishqiy va sertakalluf mavzularda ishlatishgan. Lentinidan oldin ham strambotto Italiyada keng tarqalgan, ammo boshqa shoirlar uning qat'iy qoidalariga hamma vaqt ham rioya qilmagan.

Italiyada shoirlar strambottoni ozmi-ko'pmi sakkiz qatorida yozganlar. Biroq Lentini ikki kvatrenli Sitsiliya strambottosiga olti satr yoki tersetdan iborat qo'shaloq naqarot qo'shib, she'rni 14 misraga aylantirdi. Shunday qilib Sitsiliya strambottosi keyinchalik sonetning oktavasiga aylandi. Strambo so'zi Sitsiliya “strambo” va “motto” so'zlaridan olingan bo'lib “strambo”- qisq ko'z va “motto”- hikmatli so'z degan ma'noni anglatadi. Lekin strambotto so'zining etimologiyasi strambotto mavzulariga hech qanday aloqasi yo'q edi. Olimlarning fikriga ko'ra, Lentini sakkiz qatorli Sitsiliya strambottosiga qo'shimcha olti satr, Toskan strambottosini qo'shgan. Toskanada Sitsiliya sakkiz qatorli strambottosi olti qatorli she'rga aylantirilgan. Shunday qilib, Lentini Sitsiliya sakkiz qatorli strambotto (oktava) va Toskana olti qatorli strambott(estet)ni birlashtirib (*ab ab ab ab, cde, cde* qofiyali) 14 qatorli gendekassilabik kanson<sup>10</sup> yoki sonetni yaratdi.

Kanson yoki sonetning ushbu namunasiga, Lentining zamondoshlari, Tivoli, Abboti, Yakopo Mostakil va boshqalar ham ergashgan. Lentini sonet janrini ixtiro qilgan bo'lsa-da, Italyan shoiri Toskanalik Gviton d'Arezzo (1230-1294) uning shaklini takomillashtirdi. U Toskana va Italiyaning eng nufuzli shoiri edi. Gviton d'Arezzo, xuddi Lentini singari, XIII asrda Gvido Gviniselli (1235-1276) tomonidan Italyan she'riyatiga kiritilgan *dolce stil nuovo* yoki oddiygina *stil nuovo* ruhi ta'sir ko'rsatdi. Gviniselli huquqshunoslik fakulteti talabasi bo'lib, kasbi sudya bo'lgan. Siyosiy sabablarga ko'ra surgun qilinganidan so'ng, u o'zining “Rim” asarini yozdi, bu aslida Italiyada tom ma'noda *dolce nuovo* ruhini ochdi. Shu ma'noda Gvinisellining “Rim” nomli she'rlar yoki sonetlar to'plami sonet tarixida katta ahamiyatga ega.

Gviniselli she'rlarining yorqinligi va ko'ngilchanligi uning ma'shuqasiga nisbatan zavqqa to'lgan maftunligida namoyon bo'ladi. Uning she'rlarining bu jihati, shubhasiz, asrlar davomida sonetga ta'sir ko'rsatgan va bu janr oshiqning ma'shuqasiga bo'lgan go'zal sevgisining ifodasi bo'lgan. Sonetda Gvinisellining ta'siri shunchalik katta ediki, Dante o'z “Ilohiy komediya”sida Lentini bilan bir qatorda Gvinisellini ham tilga oladi. Gviton d'Arezzoga qaytsak, yigirma besh yoshida u Bokira Maryam (Virgin Mary) ordeniga kiradi. Bundan oldin u dunyoviy she'rlar yozgan bo'lsa, diniy risarlik ordeniga kirgandan so'ng uning she'rlari ilohiy iltifotga to'yingan. Uning she'riy to'plamida qo'pol, tushunarsiz va haddan tashqari sun'iy bo'lgan bir qancha kanson yoki sonetlar o'rin olgan. Shunga qaramay, u Lentini ixtiro qilgan

<sup>9</sup> Tanasi ovalsimon torli cholg'u asbobi

<sup>10</sup> Gendekassilabik- grek qadimiy she'riyatining o'n bir bo'g'inli shakli; Kanson-strofik shakldagi lirik she'r

sonet shaklini stilistik go'zalligini mukammallashtirishda hissasi katta. Cvitton d'Arezzoning sonet naqshiga qo'shgan eng muhim xissasi, uning shu paytgacha noma'lum bo'lgan *abbaabba* oktavaning ixtiro qilishidir. Dante bu qofiyaviy sxemani o'z "Yangi Hayot"ida va Petrarka o'zining "Kansoniere" asarida ushbu sxemaga amal qilgan. Dante va Petrarkaning xizmatlari tufayli, bu oktava namunasi uzoq vaqt davomida juda mashhur bo'lib qoldi. Dante va Petrarkaning kanson yoki sonetlari muhabbatning keskinliklari va uslubning to'qimalari bilan mashhurdir. Dante sonetlarida sevgilisi Beatrisaga Petrarka esa Lauraga murojaat qildi. Dante va Petrarkadan tashqari Florensiyalik Gvido Kavalkanti (1259-1300) ham ularning misollariga ko'ra 30 ga yaqin kanson va ba'zi sonetlar yaratgan. Bularning barchasi sevgi mavzusida yozilgan. Kavalkantining asarlari *still nuovo davri* ruhiyatini kuchaytirdi. *Nuovo* ruhi va sonet modasi Italiyada XVI asrgacha saqlanib qoldi. "F.T Prins Italiyada sonetning ta'siri va uni qadrlash haqida yozgan. "Sonet XIII asr *dolce stil nuovo* davrida yangi poetik kuch sifatida paydo bo'ldi. Kavalkanti va Dante unda aql va hislarning sehrini ochib berishgan, ammo juda kichik qamrovda. Petrarka bu shakl evolutsiyasini 300 sonetning barqaror va chuqur his qilingan go'zallik bilan yakunladi; ularga teng kela oladigan biror bir shakl yo'q edi. XVI asrda Bembo boshchiligidagi Italiyaliklar Petrarka to'xtagan joyda adabiy faoliyatga kiritishdilar. Ular she'rlarini nafaqat Petrarka, balki Gorasiy va Vergiliy xotiralari bilan boyitgan holda shaklni yuksaltirishga intildilar. Biroq italyan so'z ustalari sonet shaklidan "sevgi-muhabbat mavzusida" xususan xonim yoki Donnaga bo'lgan yarim platonik va yarim diniy sadoqat, keyinchalik sevgi she'riyatning klisesiga aylangan" shaklidan foydalanganlar"[6,7]. Italiya shoirlari mustaqil sonetlardan tashqari sonetlar ketma-ketliklarini ham yozganlar. Bularga misol qilib, Bemboning "Gli" asarini va Mikelajeloning "Rime" sonetlar ketma-ketliklarini keltirish mumkin. Bu ketma-ketliklar mukammal emasligiga qaramasdan go'zallik bilan ifodalangan g'oyalar mavjud. Bu sonetlar juda ko'p shoirlarni ilhomlantirib kelgan.

XV-XVI asrlarda Italiya soneti Ispaniya, Portugaliya, Fransiya, Gollandiya, Polsha va Angliyaga ham ko'chib o'tdi. Biroz vaqt o'tgach, sonet Germaniya, Skandinaviya, Rossiya va dunyoning boshqa mamlakatlarida ham tarqaldi. Sonet butun dunyo ahli tomonidan shu qadar olqishlandiki, dunyoda shoirlar sonet yozishdan charchamadilar. Italiyadan sonet birinchi marta ispan shoiri Markiz de Santilyana (1398-1458) yordamida Ispaniyada ma'lum bo'ldi. Ammo sonet Ispaniyada o'zini namoyon qilishi uchun biroz vaqt kerak bo'ldi. Ispaniya she'riyatida sonetning ildiz otishiga yordam bergan ispan shoirlari va dramaturglari Ispaniya tuprog'ida sonetning ildiz otishiga yordam berganlar: Xuan Boskan (1490-1552), Garsilasode la Vega (1503-1536) va Lope de Vega (1562-1635). Ispaniyadan so'ng Antonio Ferrera (1528-1569) yordami bilan sonet Portugaliyaga tarqaldi va u yerda Kamoos (1524-1580) va Anthero de Quental (1842-1891) qo'lida gullab-yashnadi. Ispaniya va Portugaliyadan sonetni Fransiya Klement Marot (1496-1544) va Mellin de Sent-Jelais (1491-1558) olib kelishgan. Aynan Frantsiyada ilk bor sonetning Petrarkcha shakli o'z o'rnini yo'qotgan. Yoaxim du Bellay (1522-1560) Petrarkcha sonet shaklidan voz kechib o'zining sonet shaklini ixtiro qilgan va italyanacha bo'lmagan uchta mashhur sonet ketma-ketligini yozgan: "L'Olive", "Regrets" va "Antiquites de Rim" (Spenser tarjimasini). "Shoirlar shahzodasi" deb atalgan Per de Ronsard (1524-1585) va Filip Desportes (1546-1606) tufayli sonet Frantsiyada gullab-yashnagan. Filip Desportesning sonetlari Angliyada Yelizavetta davri shoirlari uchun namuna bo'lib xizmat qilgan. Shoirning o'zi esa o'z o'rnida Petrarka va Bembo uslublariga asoslanadi. Per de Ronsard xam o'zining "Muhabbat she'rlari"da Petrarka uslubiga murojaat qiladi. 1555-1556-yillarda yozgan sonetlarida u yosh dehqon ayol Mari Dyupinni kuylab, misralarga soddalik va tabiiylikni beradi va "Amours"da sonetni mukammallikka ko'taradi. XVI asrda Ronsard va Desportes sonet ruhini Angliyaga etkazishda muhim rol o'ynaganlar. Fransua de Malhebre (1555-1628) yangi qofiyaviy sxema *a b b a a b b a, c e d e d e* yoki *c c d c c d* ni kiritgan. Va XVI asrda sonetga aleksandrin yoki o'n ikki bo'g'inli qatorni ham kiritgan. Sonet Frantsiyada uzoq vaqt davomida mashhurlikni saqlab qola olmadi. XVIII asrda sonet butun Evropada, shu qatorda Frantsiyada ham mashhurligi pasayib ketdi. XIX asrda sonet Teofil Gotier (1811-1872) va Bodler (1821-1867) sa'y-harakatlari tufayli qayta tiklandi va Heredia, Lecomte de Lisle, Valery, Mallarme va Rimbaud kabi shoirlar qo'lida yana mashhurlikning yangi cho'qqisiga chiqdi.

Fransiyadan sonet Germaniyaga sayohat qildi, lekin harakat sekin edi. U yerda sonet "klinggedicht" – "jarangli misra" deb ham atalardi. Asosan Germaniyaga sonet Petrarkaning tarjimalari yordamida kirib keladi va sonetning o'zi ham ko'pincha tarjimalarda uchraydi. Shu bilan birga, nemis shoirlari G.R. Vekherlin (1584-1653) va Andreas Griflus (1616-1664) asarlarida Fransiya sonetnavislardan ilhomlanib, ko'plab sonetlar yaratganlar. Ammo ularning sonetni ommalashtirish yo'lidagi urinishlari tez orada barbod bo'ldi va taxminan yarim asr davomida Germaniyada sonetlarga talab yo'q edi. XVIII asrda Gotfrid Burger (1747-1794) Germaniyada sonetnavislikni qayta tiklashga harakat qildi va uning missiyasida Shlegel, Eichendoiff, Tieck va boshqalar kabi romantik shoirlar unga ergashdilar. XIX asrda sonet o'zining go'zallik cho'qqisiga Avgust Graf fon Platen (1796-1835) qo'li bilan erishdi, uning "Sonette aus Venedig" buning yaqqol misoli bo'la oladi. Xuddi shunday, XX asrda Rayner Mariya Rilkening (1875-1926) *Sonnets to*

*Orpheus* (1922) 55 sonetdan iborat majmuasi va R.A. Shroderning sonetlari nemis tilida sonet erisha oladigan go'zallik cho'qqilarini namoyish eta oldi. Angliyaga xam sonet o'z vaqtida yetib bordi. XVI asrning birinchi yarmida Angliyada Uyg'onish davri edi. O'sha davr ingliz shoirlari bu janrni qiziqish bilan o'rganib, bu uslubda ishlashni boshladilar.

*Natija va muhokamalar.* Sonetning ko'p asrlik tarixi uni murakkab shakli va harakatchanligidan dalolat beradi. Uning mukammal shakli o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'liq tarkibiy elementlardan iborat. Har bir davr va mamlakat adabiyoti unga o'zgartirishlar kiritib, har safar asosiy va ikkilamchi xususiyatlarining mukammal bosqichlarini yaratgan. Shu bilan birga sonet yaratilish davridan boshlab hozirgi davrgacha uning mavzulari ham kengayib borgan. Uning yaratilishida saroy huquqshunoslari muhim o'rin tutganligi sababli dastlab u sud ishi jarayonidek bahs, da'vo va fakt keltirish ohanglarida bo'lgan. Lentinining "*Lo basilisco a lo speclo lucente*" shu turdagi sonetlarga misol bo'la oladi:

Lo basilisco a lo speclo lucente  
traggi a morire con isbaldimento;  
lo cesne canta plu gliosamente  
quand' è plu presso a lo suo finimento;  
lo paon turba, istando plu gaudente,  
poi c'a suoi piedi fa riguardimento;  
l'augel fenise s'arde veramente  
per ritornare i' novo nascimento.  
In ta' nature eo sentom' abenuto,  
ch'allegro vado a morte, a le belleze,  
e'nforzo il canto presso a lo finire;  
estando galo torno dismaruto,  
ardendo in foco inovo in allegreze,  
per voi, plu gente, a cui spero redire. [1,17]

[Vasilisk<sup>11</sup> sayqallangan ko'zgdagi o'limiga sevinadi, oqqush o'limiga yaqin yanada suyunib kuylaydi, to'vus esa qanchalik quvnoq bo'lmasin o'z oyoqlarini ko'rganda bezovtala bo'ladi, qaqnus haqiqatan ham qayta tug'ilish uchun yonib ketadi, men o'z o'limimga, go'zallikka quvonch bilan boraman, chunki men o'zimda bu xislatlarni qabul qildim, deb bilaman va oxirim yaqinlashganda o'z qo'shig'imni yordamga chaqiraman, sevinganimda men chorasizga aylanaman, olovda yonib, men siz tufayli, yana qaytishga umid qilgan himmatli xonimim uchun, shodlikda qayta tug'ilaman.] [3,17] Sonet boshida ijodkor oshiq emas, balki ilm dunyosidagi olim sifatida keladi. Ya'ni u boshida, oktavada tabiat haqidagi bilimlarini ilgari suradi. Keyinchalik u "eo" ya'ni "men"ga aylanadi va bu g'ayritabiiy fe'l atvorning sababi go'zal xonim ekanligini aytadi. Bu yerda oktava sakkiz qatordan tashkil topgan va Lentini har ikki qatorda o'rta asr afsonalaridagi bir mavjudotdan misol keltirgan. Shoir o'zini to'rtala mavjudot bilan solishtirib, oxirgi olti qatorda xulosaga keladi. Shunga mos ravishda sestetning birinchi qatorida shoir unda bu xislatlarning xammasi borligini ta'riflaydi va keying to'rt qatorda ular bilan farqli tarafini ko'rsatib, oxirgi qatorda bularning barchasining sababi xonim deb ta'riflaydi. Sonet boshida, shoir oktava to'lgunga qadar, faktlar keltiradi va sestetda dalillarni, o'z holati bilan hamohang holda isbotlaydi, bu yerda shoirning ijodkorligiga hayratlanmasdan bo'lmaydi. Xulosa xam juda go'zal tarzda, voltada, qaqnus yonib qayta tirilgandek shoir ham hayotga qayta kelishi bilan tasvirlangan.

**Xulosa.** Sonet bu nafaqat ifodali o'qiladigan yoki ma'noli bir janr, balki mohir munozarali va leksik bog'lanmali shakl. Bu kichkina shaklda, shoir bahs-munozaralar, g'oyalar, faktlar va dalillarni si'gdira oladi. Bu shaklning yashirin imkoniyatlarini muvaffaqiyatli ishlatishning natijasi so'zamolik hisoblanadi. Bu janrda ijod qiladigan shoir maksimal darajada tejamkorlik bilan barcha dalil, fakt va xulosalarni o'n ikki satrga sig'dirishga erishadi. Sonet evolutsiyasi davomida shoirning o'z-o'zini tasvirlash darajasi kengayib boradi va u o'zini yanada ma'naviyatli, mohir va dono qarashlarini aql va ko'z o'tkirligining mujassamligi orqali ko'rsatish darajasiga yetadi. Bu shaklning fundamentini yaratgan, imperator Fridrix II saroyi devonidagi notarius va huquqshunoslar, uning mukammalligiga katta hissa qo'shgan, desak adashmagan bo'lamiz. Bu janrda avval fakt, keyin dalillar va oxirida yechim kelishida unga asos solgan ijodkorlar aslida huquqshunos bo'lganligida, deb o'ylayman. Ushbu qoida, ya'ni sonet oxirida muammoni yechish qoidasi, qariyb yetti yuz yil "hukmronlik" qilib kelyapti. Shoir qaysi davrda ijod qilganidan qat'i nazar, agar u sonet yozmoqchi bo'lsa, u oxirgi olti qatorida, ya'ni sestetda xulosani berishi kerak. Bunday qat'iy qonun-qoidalar uning, yaratuvchilarining aql-idroki va zakovatiga guvohlik beradi.

<sup>11</sup> Bir qarashi bilan barcha jonzotni o'ldiradigan afsonaviy mahluq

## LITERARY CRITICISM

### ADABIYOTLAR :

1. Harold Bloom. *The Sonnets (Bloom's Shakespeare Through the ages)* // Chelsea House Publications, 2008. – P. 184;
2. Paula R. Feldman and Daniel Robinson. *A Century of Sonnets. The Romantic-Era Revival 1750-1850.* // Oxford University Press, 2002. – P. 103;
3. Michael R.G. Spiller. *The Development of The Sonnet* // London and New York: Routledge, 2003. – P. 78;
4. A.L. Zorin. *English sonnet XVI-XIX century* // - M.: Raduga, 1990. – P. 124;
5. Kurbonova N.R. (2020) *About an issue in the description of the unreal World* // - *Theoretical & Applied Science, Issue 6, 557-560.*  
<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=44843721>
6. Dr. Sunit Kr Bera. (2014) *The history of the English Sonnet*// *International Journal of Humanities and Social Science Invention, Issue 4 PP.64-80*
7. Топорова А.В. *Ранняя итальянская лирика*//Москва имли ран, наследие, 2001
8. Shakespeare W. *The Tempest* / W. Shakespeare. -Irvine, California, 2004.
9. Burt St., Mikics D. *The Art of the Sonnet* / St. Burt, D. Mikics. -Harvard; Belknap, 2010.-455 p.
10. Shira Wolosky. *The Art of Poetry*// Oxford University Press, Incorporated,2001.-245p.
11. Kobilova A.B. *Lingua-cultural aspects of medical periphrases of English language* // *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN (Online): 2249-7137, Vol.12, Issue 05, 30-May 2022. P. 15-20.* [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/6099](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6099)
12. Kurbonova N.R and Mustafoeva M.A//*Origin and features of the sonnet genre, International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers Vol.11,Issues 01, 22-January 2022-7p.* <https://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/256>
13. Khudoyberdievna, S. Z. . (2021). *Analysis of the concepts of emotions in russian and english phraseological picture of the world.* *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 2, 11–18.* <https://literature.academicjournal.io/index.php/literature/article/view/21>.